Andrew Ross Sorkin "Agar biz kelajak avlodning trayektoriyasini o'zgartirish uchun hissa qo'sha olsak, bu faqat ularga moliyaviy va iqtisodiy asosiy tamoyillarni anglab yetishida ko'maklashishimiz yo'li orqali bo'ladi", degan fikri iqtisodiy va uning tarkibiy qismi sanalgan moliyaviy savodxonlikning kelajak avlod va mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyatini to'laqonli ifodalaydi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda aholining tadbirkorlik faoliyati, jumladan, muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyatining asosi bo'lgan iqtisodiy savodxonlik va tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan islohatlar so'nggi yillarda tobora jadallahib bormoqda. Bu islohatlar negizida tadbirkorlik subyektlarining yalpi hududiy mahsulot va O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga kelib tushgan tushumlardagi ulushi, tadbirkorlik subyektlari tomonidan aholini ish bilan ta'minlanganlik darajasi, innovatsion xizmat hamda mahsulot turlarini yaratishi, raqobat muhitini shakllantirishi yotadi.



Aholida iqtisodiy ong va tadbirkorlik qobiliyati mavjudligi bevosita faoliyatdagi samaradorlik bilan zanjiring ikki qismidek chambarchas bog'liq ekanligini 2020-yil Vazirlar Mahkamasining 8-sonli qarori bilan ishlab chiqilgan tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasini baholash uchun mo'ljallangan Business indicator avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimi "Tadbirkorlik subyektlari uchun soliq, moliya, buxgalteriya va boshqa turdag'i o'quv-seminarlar tashkillashtirilganligi"<sup>[1]</sup>ni alohida baholash ko'satkichi sifatida qabul qilinishida ko'rishimiz mumkin<sup>[1]</sup>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jaib qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4862-son qarorida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari sifatida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit tizimni tashkil etish bilan bir qatorda aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitish tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat ta'lim tashkilotlarini keng jaib qilish vazifalari belgilangan<sup>[2]</sup>.

Aholining yosh qatlамини tadbirkorlikka targ'ib qilish, ularни daromadli mehnat bandligini ta'minlash masalalari mahallalar kesimida amalga oshirilishi yoshlarni tadbirkorlikka o'qitish faoliyatiga yo'naltirish<sup>[3]</sup>, kasbhunar yo'nalishlari bo'yicha kurslarni tugatgan yoshlarni mavjud bo'sh ish o'rinaliga "Onlayn mahalla" platformasini "Mehnat.uz" platformasiga integratsiya qilish orqali joylashtirish islohatlari amalga oshirilmoqda<sup>[4]</sup>. Mamlakatimizda aholining turmush tarzini yaxshilash maqsadida olib borilayotgan siyosiy islohatlarni o'rganar ekanmiz, inson yashash farovonligi darajasiga ijobji ta'sir qiluvchi tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ishlari aholida tadbirkorlik qobiliyatini yuzaga chiqarish, kishilarning iqtisodiy savodini oshirish vazifalari bilan bir qatorda yoki izchil tarzda kelayotgani guvohi bo'lamiz.

Aholining tadbirkorlik subyektlari sifatidagi iqtisodiy faoliyatini yurtishga jaib qilish tadbirkorlik subyektlarining mamlakatda aholining bandligini ta'minlashdagi tutgan o'rni bilan bog'liq bo'lib, ushbu vaziyatni isloq qilish mamlakatlarning rivojlanganlik darajasidan qatiy nazar, iqtisodiy-siyosiy islohatlar yo'naltirilgan bosh maqsad hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkor aholining katta qatlami mikro tadbirkorlik bilan shug'ullanib, biznesning 90 foizini ham aynan shu turdag'i tadbirkorlik tashkil qiladi. Bu bilan mikro biznes mamlakatlarda 60-70%, dunyo bo'ylab esa 50% rasmiy bandlikni ta'minlamoqda. Xususan, Yevropa ittifoqining rasmiy statistik ma'lumotlarga qaraganda, kichik va o'rta biznes Ittifoqdagi barcha korxonalarining 99 foizini tashkil qilib, 100 millionga yaqin aholini ish bilan ta'minlagan. Yevropa yalpi ichki mahsulotining yarmidan ziyyodini tashkil qiluvchi faoliyat turi mamlakat iqtisodiyotning har bir sektorida qo'shimcha qiymatni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga doir islohatning teng ahamiyat kasb etishining yaqqol dalili sifatida "Jahon tadbirkorlik monitoringi"ning 2023-yilgi hisobotida yangi biznesga asos solish ko'satkichlari 5 Lotin Amerika (Gvatemala, Panama) va Karib havzasi orol mamlakatlari tarkibiga kiruvchi (Kolumbiya, Chili va Urugvay) mos ravishda o'rta hamda past-daromadli mamlakatlarda eng yuqori ekanligini va ulardan keyingi o'rinda yuqori-daromadli Birlashgan Arab amirliklari mamlakati turganligini keltirishimiz mumkin. Daromadlilik darajalari toifalanuvchi mamlakatlarning bari shavqatsiz sur'atlarda kuchayib borayotgan ishsizlikka yuz tutmoqda.

Xalqaro mehnat tashkilotining "Butunjahon yoshlarning ish bilan ta'minlanganlik ko'satkichlari –2022" hisobotiga ko'ra, yuqori daromadlilik darajasiga qaramay Arab amirliklari yoshlar ishsizligining eng tez o'suvchi xarakterli eng yuqori foiziga ega<sup>[5]</sup>. Xususan, 2021-yilda arabistonlik ishsiz yoshlar 25.9%ni tashkil etgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining 2022-yil noyabr oyi ma'lumotlariga qaraganda "Ishsizlik darajasi" Chili mamlakatida 7.6%ga teng, shu yilning dekabr oyida Kolumbiya uchun ushbu ko'satkich 9.8% ni tashkil etgan. Shu jumladan, Respublikamizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 18 milliarddan ziyod bo'lib, bu mamlakat aholisining qariyb 55 %ni tashkil etadi. Aholining bu qatlami orasidagi rasmiy ishsizlik 17 foizga (844 ming nafari) teng ekanligi muammoning dolzarbligini belgilaydi.

Ayni damda olib borilayotgan islohatlar aholining kognitiv iqtisodiy tafakkur yuritish va tadbirkorlik qibiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Tobora o'zgarib borayotgan mehnat bozorida ish qidiruvchiga emas balki, ish o'rni yaratuvchisiga aylanish, xususan mamlakat aholisining yuqori sifatli hayot kechirishi, iqtisodiy rivojlanishning uzlusizligi ta'minlanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy xizmat ko'sratuvchi pozitsiyani egallash uchun kishi iqtisodiy tafakkur va tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo'lishi birlamchi ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, aholini tadbirkorlik qobiliyatiga iqtisodiy savodxonlikning ta'sir doirasini hamda uning biznesning yuritish istagini paydo bo'lishiga ta'sir darajasini aniqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Alicia Coduras iqtisodiy ta'lim hamda treningni sohada egallangan tajriba bilan bir qatorda boshqa 8 ta omil (ijtimoiy status, yashash joyi (shahar va shahardan tashqari), ish statusi, daromad darjasasi, ta'lim, jins va tug'ilgan mamlakat)ning kishida tadbirkorlikka tayyorlik darajasiga qo'shuvchi hissasini baholash bo'yicha tadqiqot o'tkazib, maxsus metod ishlab chiqadi. Suratno oiladagi iqtisodiy ta'lim yokida tengqurlari ichida ta'lim olish 38.4% iqtisodiy savodxonlik (Economic literacy) rivojlanishiga ta'sir qilishini ilmiy asoslab, iqtisodiy tafakkur qilish ko'nikmasi biznes yuritish istagini paydo qilishini ifodalovchi model yaratadi<sup>[6]</sup>. Ricardo Teruel-Sánchez o'z




tadqiqotida tajriba (Experience) ni tadbirkorlarga yangi biznes imkoniyatlarni aniqlash ko'nikmasini, treninglar tadbirkorlik xulq-atvori, niyat va qobiliyatini shakllantirishini ta'kidlaydi. Botha va Bignottining ilmiy izlanishlari natijasida bo'lajak tadbirkordagi treyning (Training) va ta'limning yuqori darajasi ishbilarmonlikning joriy muhit va imkoniyatlari haqidagi ma'lumotni tushunishi, ularga ko'ra biznes g'oya va maqsadlarini moslaslashtirish ehtmoli yuqori bo'ladi degan xulosa chiqariladi [7]. Agus Wibowo yoshlarda iqtisodiy savodxonlik ma'lumotlarni izlash, bog'lash va baholab, hukm chiqarish ko'nikmalarini shakllantirib, bu kompetensiyalar ularda biznes yuritishni boshlash istagini paydo qilishini ta'kidlaydi.

Ummi Ainur Rizqi Tadbirkorlik ta'limi va iqtisodiy savodxonlikni ta'sir omillari sifatida tahlil qilib, ularning birgalikda kishida tadbirkorlik yuritishda o'ziga ishonch hissini (self-efficacy) paydo qilishini va uning natijaviy mahsuli yoshlarda tadbirkorlik bilan shug'llanishga nisbatan vujudga kelgan yuqori hohish (Entrepreneurial intention) ekanligini o'zining 2022-yilgi tadqiqotida bayon qilib, tadbirkorlik ta'limi va iqtisodiy savodxonlik faoliyatga ishonch hissini shakllantirishda 50.6% ta'sir roliga ega ekanini, bu uchta omil birgalikda tadbirkorlik istagining vujudga kelishida 73.18% ta'sirga ega ekanligini isbotlaydi. Tadbirkorlik bilan shug'llanish istagiga ta'sir omillarini tahlili Saadat Saeed tomonidan ham olib borilib, u o'z faoliyatiga ishonch (self-efficacy) va imkoniyatlarni aniqlash qobiliyatiga ega kishilarda tadbirkorlik faoliyatini yuritish istagi (Entrepreneurial intention)ning paydo bo'lish ehtimoli 64%ga tengligini ta'kidlaydi [8].

Tendai Douglas Svtwa moliyaviy imkoniyatlardan boxabarlik, tadbirkorlikka munosabat va yoshlar tadbirkorligida o'z-o'ziga ishonch (Self-efficacy) kishida tadbirkorlik qobiliyatini (Entrepreneurial Abilities) shakllantirishi va bu unda tadbirkorlik bilan shug'llanish istagini (Entrepreneurial intentions) yuzaga keltirishini aniqlaydi [9]. U so'rovnoma natijalarini s MOTE 1/18/6 V orqali tahlil qiladi va yuqoridagi 3 ta faktorning tadbirkorlik qobiliyatini shakllanishida 76% vazifani bajarishini, o'z navbatida kishida biznes yuritish istagining yuzaga kelishi 71% uning tadbirkorlik qobiliyatiga egaligiga bog'liq deb baholaydi.

Tadbirkorlikni yuritishga doir o'z-o'ziga ishonch hissining oshishi institutsional muhit (Institutional environment) va ijtimoiy-madaniy muhitning barqaror (Environmental sustainability) ligini talab qilishidagi bog'liqlik munosabatini Ricardo Teruel-Sánchezning Tadbirkorlik qobiliyatining biznes yuritishga ta'siri nomli maqolasida ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy-madaniy muhitning barqarorligi tadbirkorning barqaror faoliyati kafolati hisoblanadi. Binobarin, tadbirkor faoliyati bevosita mijozlar, hamkorlar, investorlar, ishchilar, ta'minotchilar bilan bog'liq bo'lib, ular jamiyat namoyondalari sifatida bugungi kunda strategik biznes marketingning uzlusiz qismiga aylangan tabiatni, inson huquqlarini himoya qilish va ularga muvofiq harakat qilishni talab qiladilar. Ushbu talablarga biznes yurituvchi shaxs imijining mos kelishi tadbirkorga jamiyatning ishonchini oshirib, biznes faoliyatining barqarorligini shubhasiz ta'minlaydi.

Valenzuela Fernándezning fikriga ko'ra tashqi muhitning barqarorligida kishining tadbirkorlik sifatlari, etikasi va xulq-atvoriga egalik qilish muhim ahamiyat kasb etadi [10]. Hieu Minh VU 2020-yilgi tadqiqotida tadbirkorlik qibiliyati bevosita tadbirkorlik yuritishga (Business Performance) ta'sirini ifodalovchi konseptual modelni ishlab chiqib, unda tadbirkorlikni yuritishning yaxshilanishi moliyaviy faoliyat (Financial performance) ning o'zgarishi va strategik rejalar (Strategic plans) da o'z aksini topishi keltiriladi. Tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanishi tadbirkorlik bilan shug'llanish istagini shakllantirishi haqidagi gipoteza yuqorida nomlari va tadqiqot natijalari qayd qilingan Tendai Douglas Svtwa, Ummi Ainur Rizqi va Agus Wibowo kabi ko'plab olimlarning tadqiqotlarida o'z tasdiqini topgan. Shu yuzadan tadqiqotimizda tadbirkorlik qobiliyati bevosita kishi tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga undovchi istakni paydo qiluvchi omil sifatida qabul qilinadi va tadqiqot gipotezalari qatoriga kiritilmaydi.





## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida yuqori salohiyatlari ilmiy-bibliografik ma'lumotlar bazalarida indeksatsiyalangan maqolalar o'rganiladi. Respondentlar sifatida aholining 30 yoshgacha ish bilan ta'minlanmagan qismi tanlab olindi. Respondentlarning soni Daniel & Terrell formulasi yordamida 0.9% xatolik doirasida hisoblandi va 112 taga teng ekanligi aniqlandi. Ular tomonidan bildirilgan fikrlar va ma'lumotlar iqtisodiy savodxonlik darajasining tadbirkorlik qobiliyatiga, tadbirkorlikdan boxabarlikka, ongli tavakkalga qo'l urishga moyillik hissiga hamda yakuniy natijada tadbirkorlik istagining paydo bo'lishiga ta'siri doirasini aniqlandi.

Ma'lumot o'rnila birlamchi manba sifatida tadqiqotchi o'z izlanishi mobaynida jamlangan ma'lumotlar tus-huniladi. Ikkilamchi manba deganda esa, boshqa izlanuvchilar tomonidan mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlar va ularning natijalari nazarda tutiladi. Rasmiy ma'lumotlar, kitob va jurnal maqolalari ham ikkilamchi manbalar jumlasidandir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

30 yoshgacha bo'lgan yosh aholi qatlami ichida so'rovnoma o'tkazish dastavval so'rovnoma ishtirokchilarini sonini aniqlashni taqozo etadi. Bu maqsadda biz, Daniel & Terrell metodiga tayangan holda (1-jadval) formulaga asosan, 112 ta deb belgilandi.

### 1-jadval: So'rovnoma ishtirokchilarining soni

Qisqartama	Tasnif	Natija
n	Hisoblangan respondentlar soni	112.749 = 112.
N	ishsiz aholi soni	1300
e	xatolik foizi	9 %


Formula:  $n=N/(1+Ne^2)$   
 Hisoblash:  $1300 / (1+1300*0092) = 112.749$

Aholi iqtisodiy savodi ahamiyatini aniqlashda, dastavval aholining iqtisodiy savod darajasi so'rovnoma asosida o'rganilindi (1-rasm), so'ng aholining ushbu bog'liqlikka munosabati tahlil qilindi. Iqtisodiy savodxonlik bo'yicha berilgan savollarga respondentlarning 68 nafari noto'g'ri javob berib, "Sizga tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun kam foizli kredit resurslari ajratildi. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo'yicha g'oyangiz mavjud. Siz tadbirkor bo'lishga tayyormisiz?" degan savolga 31 nafar respondent "Ha" deya javob berdi. Ya'ni, respondentlarning teng yarimidan ziyodi (56%) iqtisodiy savodga ega emasligiga qaramay, ularning 25%gina g'oya hamda moliyaviy resurslarning mavjudligi bizes yuritishni boshlash va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishda yetarli deb baholadilar. Demak, 75% respondent yoshlar fikricha kishining iqtisodiy savodi va tadbirkorlik qibiliyatiga egalik qilishi biznesni boshlash qarorini qabul qilishda qat'iylik hissini uyg'otuvchi funksiyaga ega ekan. Shu o'rinda yoshlar uchun tadbirkorlik faoliyatini yuritishda nima to'sqinlik qilayotganligini aniqlashga qaratilgan savol ham berilib, ularning 21% muammoni tavakkaldan qo'rqishga, 14%i g'oyaning yo'qligi, 29%i moliyaviy ta'monotga ehtiyoji borligini va qolgan 22.5% qismi mavjud imkoniyat va holatdan boxabar emasligiga havola qildi.

Bu kabi so'rovnoma Yevropada 2020-yilda o'tkazilinib, tadqiqot natijalari bizning so'rovnoma ko'rsatichilarimiz bilan o'xshash jihatlarga ega. Yevropa mamlakatlari o'tkazilgan tadqiqotlarda aniqlanganki, aholining yosh qatlami tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun o'zlarida zaruriy qobiliyatlar va bilimlarning mavjud emasligini, ularning bor yo'g'i 38% tadbirkorlikni boshlashda o'z bilimlariga ishonishlarini ta'kidlashadi. Xususan, bizning tadqiqotda tadbirkorlikni yuritishga asos solishda yetarlicha qobiliyat va bilimga egalik qilish holatini ma'lum qilgan va muammoni moliyaviy ta'minotga bog'lagan yoshlar 25-30 foizni tashkil etdilar. Kishida g'oyaning yo'qligi uning mavjud ishbilarmonlik muhitini va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash siyosatidan ma'lumotlarga ega emasligi, garchi bu ma'lumotlarni izlab o'rganish imkoniyati mavjud bo'lsada, iqtisodiy savodning yo'qligi sabab qanday ma'lumotni izlash, ma'lumotlarni xususan bozor shart-sharoitini, o'z raqibchilarini, ta'monotchilar, imkoniyat va tahidlarni tahlil qilish va strategik rivojlanish pozitsiyasini shakllantirishga qodir bo'lish qobiliyatlarining yo'qligi bilan uzviy bog'lanib, bu holat muammoning asl boshi hisoblanadi. Ammo, boshqa tarafdan yoshlar mavjud imkoniyatlar hamda islohatlardan xabardor bo'lmassliklari ham omil sifatida ta'sir qilish kuchiga ega. Xususan, yoshlar ichida bu islohatlardan o'zlarini xabardor deb hisoblash holatlariga munosabatlarini o'rganishda 44% yoshlar salbiy munosabat bildirganlar. Fikrimizcha tavakkaldan qo'rqish ham aslida iqtisodiy jarayonlarni bilim bilan nazorat qilish, ularga yechim topish yoki xavf-xatarni oldindan ko'rgan holda uni yuzaga kelish tahdidini bartaraf etish layoqati bilan bog'liq.



## Tadbirkorlik faoliyatidan to'suvchi omillar



1-rasm: Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatidan to'suvchi omillar

Dinamik iqtisodiyot nafaqat nazariy bilimlar balki, amaliy iqtisodiy savodxonlikni talab qiladi. Amaliy ko'nikma esa, iqtisodiy ma'lumotlar tahvilini olib borishda tajriba shakllantirish orqali paydo bo'ladi. Fundamental iqtisodiy bilimlarni iqtisodiy jarayon va munosabatlarda qo'llash orqali kishida o'z salohiyati va imkoniyatlariga nisbatan ishonch hissi paydo bo'lib, bu ongli tarzda tavakkalchilikka qo'l urishga turtki kuchi vazifasini o'taydi. Ongli tavakkalchilikni yuzaga keltiruvchi iqtisodiy tafakkur qilish ko'nikmasi tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini keltirib chiqaruvchi omillar guruhiга mansub.

Ma'lumki, aholini tadbirkorlikka jalb qilishda endogen va ekzogen omillar ahamiyat kasb etadi. Endogen omillar deganda tashqi muhit shart-sharoiti nazarda tutilsa, ekzogen omillar deganda shaxsga taalluqli elementlar guruhi tushuniladi. Xususan, iqtisodiy tafakkur qilish ko'nikmasini enzogen omillar guruhiга mansub element desak, mamlakatda aholining iqtisodiy bilimlarini oshirish islohatlari va imkoniyatlarini ekzogen guruh elementi deyish mumkin. Shu ikki guruh elementlarining jam bo'lishi kishi tadbirkorlik qobiliyatining namoyon bo'lishida fundamental ahamiyat kasb etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo, ba'zi hollarda ham endogen ham ekzogen omillar mavjud bo'lishiga qaramay aholining tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish ko'rsatkichi turg'unligicha qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faoliyini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6260-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, tadbirkorlikka qiziquvchi yoshlarni biznes va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish hamda yoshlarning yangi g'oyalari asosida ishlab chiqilgan innovatsion, startap va biznes loyihibarini moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish vazifasi belgilangan<sup>[11]</sup>. Bugungikunda E-kasb.uz platformasi o'z faoliyatini yuritib, yoshlarda tadbirkorlik qibiliyatini oshiruvchi kurslarni bepul tarzda taklif qiladi. Ushbu platformaga mamlakatdagi olib borilayotgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati haqidagi ma'lumotlarni "xarita" shaklida integratsiya qilish hamda iqtisodiy savodxonlikdan kurslarni joriy etib, bu kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan shaxslarga imtiyozli kredit olish imkonini beruvchi sertifikatlar bilan taqdirlash yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishda ularning tavakkal qilishga bo'lgan qo'rquvini iqtisodiy savodni shakllantirish orqali yo'q qilib, ularni joriy imkoniyatlardan boxabar holda maqsadli harakatlarini rag'batlantirish tizimini tashkil etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif. Yondashuvning bat afsil tafsilotlari:

1. Tadbirkorlikka jalb qilishga qaratilgan tadbirkorlik turi va yo'nalishiga ko'ra islohatlar yagona platformada (E-kasb.uz) xarita shaklida hududlar kesimida aks ettiriladi.



2. Belgilangan ijtimoiy guruhga mansub shaxslar (temir daftarga kiruvchi shaxslar, gender imtiyozlar, 30-yoshgacha bo'lgan shaxslar va h.k.z) uchun imtiyozlarga har biri alohida belgi bilan ajratilgan holda havola kiritiladi.
3. Hududlar kesimidagi soliq va boshqa imtiyozlar tafsilotlar bayon qilinadi.
4. Hududiy infratuzilma haqida ma'lumot, iqtisodiy ko'rsatkichlar aks ettiriladi.
5. Iqtisodiy savodxonlik darajasi real ko'rsatkichlar tahlili asosida baholanadi (bank kreditlaridan foydalanish samaradorligi, iqtisodiy qarorlar)
6. Maqsadli iqtisodiy savodxonlik bo'yicha kurs/terninglarni tamomlashni rag'batlantiruvchi mexanizm ishlab chiqiladi. Unga ko'ra e.kasb.uz ta'lim platformasidagi o'quv kurslarini tamomlagan shaxslar uchun kredit olishda, uning foizlarida imtiyozlar beriladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://lex.uz/docs/-4688498#-4689351>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020-yildagi PQ-4862-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.12.2021-yildagi PQ-62-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.10.2023-yildagi PQ-329-son.
5. [https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed\\_emp/documents/briefingnote/wcms\\_853324.pdf](https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_emp/documents/briefingnote/wcms_853324.pdf)
6. Surathno, (2021). Family economic education, peer groups and student's entrepreneurial intention: the mediating role of economic literacy. *Heliyon* 7.
7. Botha, M., & Bignotti, A. (2017). Exploring moderators in the relationship between cognitive adaptability and entrepreneurial intention: Findings from South Africa. *International Entrepreneurship and Management Journal*, 13(4), 1069–1095. <https://doi.org/10.1007/s11365-017-0437-8>.
8. The Role of Perceived University Support in the Formation of Students' Entrepreneurial Intention.
9. Tendai Douglas Svtwa, (2022). Perceived access to finance, Entrepreneurial self-efficacy, attitude toward entrepreneurship, entrepreneurial ability, and entrepreneurial intentions: a Bostwana youth perspective. SAGE. DOI:10.1177/21582440221096437 journals.sagepub.com/home/sgo.
10. Valenzuela Fernández, L., Jara-Bertin, M., & Villegas Pineaur, F. (2015). Prácticas de responsabilidad social, reputación corporativa y desempeño financiero. *Revista de Administração de Empresas*. 55(3), 329–344. <https://doi.org/10.1590/S0034-759020150308>.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.07.2021-yildagi PF-6260-son 14.07.2021.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

